



ART TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Isakdjanova Munajat

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-8033-2728

m.isakdjanova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada art turizm madaniyat, kreativ industriyalar va mehmon tajribasi kesishmasidagi yangi yo'nalish sifatida yoritiladi. Xalqaro va mahalliy adabiyotlar (MacCannell, Bourdieu, Florida, Richards) hamda O'zbekiston qonunchiligi (2024-yilgi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun) asosida to'rt blokli model ishlab chiqildi: (1) nazariy-huquqiy asoslar; (2) amaliy formatlar; (3) hududiy-urbanistik kontekstlar; (4) psixologik-ijtimoiy funksiyalar. Modelning besh xususiyati aniqlandi: estetik tajriba markaziyligi, faol ishtirok, rassom-auditoriya muloqoti, kreativ iqtisodiyotga integratsiya va qiymatlar uyg'unligi. O'zbekiston misollari yo'nalishning shakllanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot xizmat sifatini baholashni estetik va interaktiv ko'rsatkichlar bilan to'ldirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: art turizm, kreativ iqtisodiyot, madaniy turizm.

ПОНЯТИЕ АРТ-ТУРИЗМА И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Исакджанова Муножат

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. Статья рассматривает арт-туризм как новое направление на стыке культуры, креативных индустрий и опыта посетителей. На основе анализа литературы (МакКаннелл, Бурдьё, Флорида, Ричардс) и нормативной базы Узбекистана (Закон о креативной экономике, 2024) предложена модель, включающая: (1) теоретико-правовые основания; (2) практические форматы; (3) территориально-урбанистические контексты; (4) психосоциальные функции. Определены пять признаков арт-туризма: эстетический опыт, активное участие, интерактивность «художник-аудитория», связь с креативной экономикой и синергия ценностей. Примеры из Узбекистана показывают институционализацию направления. Подчёркнута необходимость разработки методик оценки качества услуг с учётом эстетики и участия.

Ключевые слова: арт-туризм, креативная экономика, культурный туризм.

THE CONCEPT OF ART TOURISM AND ITS KEY FEATURES

Isakdjanova Munojat

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article conceptualizes art tourism as an emerging field at the intersection of culture, creative industries, and visitor experience. Based on content analysis of international/local scholarship (MacCannell, Bourdieu, Florida, Richards) and Uzbekistan's policy framework (2024 Creative Economy Law), an integrative model is proposed linking: (1) theoretical–legal foundations; (2) practical formats; (3) territorial–urban contexts; and (4) psychosocial functions. The model identifies five features: centrality of aesthetic experience, active participation, artist–audience interaction, embeddedness in the creative economy, and convergence of socio-cultural, economic, and aesthetic value. Uzbek cases (Savitsky Museum, Human House, Art Station, biennials) show institutionalization. Recognizing art tourism as a distinct segment provides a basis for service quality assessment enriched with experiential and affective indicators.

Keywords: art tourism, creative economy, cultural tourism.

Kirish.

So'nggi yillarda **art turizm** turizm industriyasining yangi, lekin tez konsolidatsiyalanayotgan yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. 2024 yilda UN Tourism (UNWTO) 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro turizm pandemiyagacha bo'lgan darajaga deyarli to'liq qaytdi: yil yakunida 1,4 mlrd xalqaro keluvchilar (overnight arrivals) qayd etildi va bu ko'rsatkich tiklanishning yakunlangani hamda bozorning **tajriba-markazli** (experiential) va **ishtirokchilikka asoslangan** (co-creation) segmentlarga siljishi bilan izohlanadi (UNWTO, 2018); bunda san'at maydonlari—muzey, galereya, biennale, ijodiy rezidensiya va kreativ klasterlar—oddiy tomoshadan tashqari **hissiy, estetik va ijtimoiy muloqotni** ta'minlaydigan muhit sifatida qadrlanmoqda (UNWTO, 2018). Xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar ham madaniy komponentli sayohatlarning turizm iste'molida yirik ulushga ega ekanini tasdiqlaydi: "Tourism & Culture Synergies" hisobotida madaniy turizm ulushi taxminan 39–40% deb baholanadi; bu, o'z navbatida, san'atga tayangan sayohatlarni (art turizm) alohida segment sifatida shakllanishini tezlashtirmoqda (Richards G. , Cultural tourism: a review of recent research and trends, 2018). Kengroq kontekstda, UNESCOga ko'ra, madaniy va kreativ industriyalar global YIMning 3,1% ini va bandlikning 6,2% ini ta'minlaydi — demak, san'at, kreativ iqtisodiyot va turizm kesishmasidagi oqimlar nafaqat estetik va ijtimoiy, balki iqtisodiy barqarorlikni ham kuchaytiradi; art turizmning bozorga "institutsional" kirib borishi aynan shu strukturaviy asoslar bilan izohlanadi (UNESCO, 2023).

O'zbekistonda esa bu jarayonni huquqiy asoslar yanada kuchaytirmoqda. Xususan, 2024-yilda qabul qilingan O'RQ-970-sonli "**Kreativ iqtisodiyot to'g'risida**"gi qonun (2024) san'at, madaniyat va ijodiy sohalarini iqtisodiyotning alohida segmenti sifatida e'tirof etib, art turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu qonun doirasida davlat qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy mexanizmlar, hududiy kreativ klasterlar va yangi tashabbuslarni rag'batlantirish mexanizmlari art turizmni barqaror rivojlantirish uchun muhim huquqiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz misolida art turizmning konturlari yaqqol: 2024 yilda mamlakat muzeylariga 4,8 mln tashrif amalga oshirilgan bo'lib, 1,4 mln nafari xorijiy sayyohlardir (UzDaily, 2025), (Самойлова, 2025),. Nukusdagi Savitskiy muzeyi yillik oqimda 100 mingdan ortiq tashrifchini jalb etuvchi markazlardan biri sifatida ko'rsatiladi (Umarova & Djanzakov, 2025). Shu bilan birga, Toshkentda X Tashkent International Biennale of Contemporary Art (14–18 oktabr 2024) o'tkazilishi va yangi kreativ hududlarning paydo bo'lishi, shuningdek Art Station (Samarqand) va Human House (Toshkent) kabi platformalarning faollashuvi art turizm infratuzilmasini mustahkamlab bormoqda.

Shuningdek, 2025 yil 5-sentyabrdan 20-noyabrgacha o'tkazilayotgan **"Recipes for Broken Hearts"** nomi ostidagi Buxoro biennalisida 39 davlatdan 200 dan ortiq ishtirokchi 70 ta joyga xos yaratilgan asar bilan qatnashmoqda (Biennial, 2025). ACDF (Uzbekistan Art and Culture Development Foundation) tashabbusi bilan tashkil etilgan bu biennale ijodiy va madaniy almashinuvni kuchaytirish, shahar turg'unligini yangilash va merosni jonlantirishga xizmat qilishni maqsad qilgan bo'lib (Jhala, 2024), san'at yaratuvchilari bilan birgalikda osh mashg'ulotlari, performanslar, o'zbek hunarmandchiligi elementlari bilan ko'rgazmalarni birlashtiradi, ya'ni san'atga tayangan turizm unsur sifatida tajriba-markazli konspekti kuchaytiradi (Stead, 2025). Bu jihatlar Bukhara biennalisini art turizm konsepti ichida nafaqat tomoshaga, balki ishtirokka yo'naltirilgan, joyga bog'langan san'at tajribasi sifatida ko'rsatadi. So'nggi yillardagi raqamlar va tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, art turizmning 'yangi yo'nalish' sifatida shakllanishi bir qator omillar majmuida o'z ifodasini topmoqda. Bular jumlasiga, birinchidan, pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasining tezkor tiklanishi va bozorni diversifikatsiya qilish zarurati; ikkinchidan, global miqyosda tajriba-markazli iste'mol tendensiyasining kuchayishi hamda madaniy kontentning moslashuvchanligi; uchinchidan esa, milliy darajada kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi va muzey hamda ijodiy rezidensiyalar ekotizimining kengayishi kiradi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unlashuvi art turizmni mustaqil konseptual kategoriya sifatida shakllanishi va rivojlanishining asosiy shart-sharoitlarini belgilab bermoqda. Shuningdek, art turizm o'zining ko'p qirrali tabiati bilan nafaqat turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki jamiyat hayotida muhim **madaniy, ma'naviy va ijtimoiy vazifalarni** ham bajaradi. Bir tomondan, u turistik oqimlar orqali hudud iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydi, yangi ish o'rinlari yaratadi, madaniy inshootlarning (muzeylar, galereyalar, ijodiy rezidensiyalar) infratuzilmasini modernizatsiya qilishga turtki beradi. Ikkinchi tomondan, art turizm — **madaniy almashinuv va xalqaro muloqot** maydoni bo'lib, turli millat va madaniyat vakillarini san'at orqali birlashtiradi. Shu jarayonda san'at iste'molchisi sifatida turist faqat tomoshabin emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'zining **ma'naviy boyishini**, estetik didini va ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, art turizm **mahalliy identitet va madaniy merosni qayta kashf etish** jarayoniga xizmat qilib, yangi avlodni tarixiy qadriyatlarni san'at vositasida o'rganishga jalb etadi. Natijada, art turizm — iqtisodiy samaradorlik, madaniy barqarorlik, ijtimoiy integratsiya va shaxsiy ma'naviy rivojlanish o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradigan kompleks hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shundan ko'rish mumkinki, O'zbekiston va Markaziy Osiyo sharoitida art turizm bozorini diversifikatsiya qilish va madaniy merosni zamonaviy shaklda targ'ib etish vositasi sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Nukusdagi **Savitskiy san'at muzeyi** nafaqat milliy merosni namoyish etadi, balki xalqaro turistlarni jalb qiluvchi san'at markaziga aylangan. Toshkentdagi NBU Art Gallery, **Human House, Regeneration Art, Xamar, galeriyalari** va Samarqanddagi **Art Station** rezidensiyalari zamonaviy rassomlar, hunarmandlar va sayyohlarni birlashtirib, ijodiy tajriba almashish maydonini yaratmoqda. Bundan tashqari, Toshkent biennalesi va yaqinda tashkil etilgan **Buxoro biennalesi** Markaziy Osiyoda san'atni global miqyosda targ'ib etuvchi yirik platformalar sifatida mamlakatning kreativ salohiyatini xalqaro auditoriyaga tanitmoqda. Shu orqali art turizm nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va madaniy merosni jonlantiradi, balki O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirish va mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar va sohaning so'nggi tendensiyalaridan kelib chiqib, art turizmning "yangi yo'nalish" sifatida shakllanishi bir qator omillar majmuida o'z ifodasini topmoqda. Biroq, hozircha art turizmga aniq ta'rif berilmagan bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda ko'proq madaniy yoki kreativ turizm doirasida izohlanmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotda art turizm tushunchasini mustaqil ilmiy kategoriya sifatida aniqlash va uning asosiy xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslash dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqib, **mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi** — art turizm tushunchasini ilmiy nuqtai nazardan

aniqlab olish va uni turizm nazariyalari doirasida mustaqil konsept sifatida shakllantirishdan iboratdir. Bunda, avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlarda art turizmning madaniy va kreativ turizm doiralarida berilgan turlicha talqinlari o'rganiladi va qiyosiy tahlil qilinadi. Shu jarayonda art turizmning o'ziga xos belgilari — san'at asarlaridan kelib chiqadigan estetik tajriba, turistning faol ishtirokchilik roli, san'atkor va auditoriya o'rtasidagi interaktiv muloqot, shuningdek madaniy merosni zamonaviy shaklda talqin qilish imkoniyati — alohida ilmiy kategoriyalar sifatida ajratib ko'rsatiladi. Natijada, tadqiqot nazariy jihatdan art turizmni turizm bozorining yangi segmenti sifatida izohlash bilan birga, uning asosiy xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Bu esa keyingi bosqichlarda art turizmni xizmat sifatini baholash metodikasini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy tayanch vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar sharhi.

Art turizm hali alohida konsept sifatida keng e'tirof etilmagan bo'lsa-da, uni tushunishga yaqin bo'lgan bir qator nazariy yondashuvlar mavjud. Art turizm tushunchasini chuqurroq ochib berish uchun xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarga kontent-analiz qo'llash zarur. Xalqaro tadqiqotlar ko'rsatadiki, art turizm ko'proq madaniy va kreativ turizm nazariyalari doirasida izohlangan. Avvalo, turizm nazariyalarida madaniy va kreativ turizm tushunchalari art turizmga eng yaqin ilmiy asos sifatida qaraladi. (MacCannell, 1976) o'zining *The Tourist: A New Theory of the Leisure Class* asarida "staged authenticity" ya'ni "sahnalashtirilgan haqiqiylik" nazariyasi orqali turist tajribasini ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida tahlil qilib, madaniy iste'mol va autentiklikni tushunishda yangi metodologik yondashuvni taqdim etadi. Ushbu qarashlar san'atga tayangan turizm tajribalarini ham izohlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. (Richards, 1996) esa madaniy turizm va kreativ turizm tushunchalarini chuqur ishlab chiqqan holda, san'at va ijodiy jarayonni turizm mahsulotining markaziga qo'yadi. Uning ta'riflarida turist nafaqat madaniy qadriyatlarni tomosha qiluvchi iste'molchi, balki yaratuvchanlik jarayonining faol ishtirokchisidir (Richards G. , 2018). Bu yondashuv art turizmning asosiy xususiyatlari — estetik tajriba va faol ishtirok elementlariga yaqinlashadi. (Florida, 2002) tomonidan ilgari surilgan "creative class" ya'ni "yaratuvchi sinf" nazariyasi ham art turizmni tushunishda bevosita ahamiyatga ega, chunki u kreativ iqtisodiyotning shahar brendi, turizm jozibasi va madaniy muhitni shakllantirishdagi o'rnini ochib beradi. Shuningdek, (Bourdieu, 1984) ning *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste* asarida ilgari surilgan "cultural capital" ya'ni "madaniy kapital" konsepsiyasi san'at iste'molining ijtimoiy tabaqalanish, did va estetik qadriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi, bu esa art turizm fenomenini tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. (Travel&Tourism Development Index, 2024) hisobotida madaniy turizm ulushi 40% deb baholangan bo'lib, san'at turizmining alohida segment sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi. (UNESCO, 2022) hisobotlariga ko'ra esa, madaniy va kreativ industriyalar global YIMning 3,1% ini va bandlikning 6,2% ini ta'minlaydi, bu art turizmning iqtisodiy va ijtimoiy o'rnini yanada mustahkamlaydi.

San'at turizmi, ko'p hollarda "madaniy turizm" ichida ko'rilsa-da, aslida o'ziga xos tajriba shakllari, tashkiliy tuzilmalari va ijtimoiy-madaniy kontekstlari bilan ajralib turadigan mustaqil turizm turi sifatida shakllanmoqda. Shu sababli, (Franklin, 2018) san'at turizmini alohida tadqiqot sohasi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. U bu turdagi turizmning shaharlarda va mintaqalarda qayta tiklanish, madaniy resurslardan foydalanish va san'at ommasi bilan turizm sanoati o'rtasida ko'prik vazifasini o'tayotganini ta'kidlaydi. San'at turizmi hududlarning jozibadorligini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. (Plyuta, 2021) bu turizm shaklining o'ziga xos xususiyatlari — ya'ni zamonaviy san'at festivallari, ko'rgazmalar, teatrlar, ko'cha san'ati va art-mehmonxonalar orqali nafaqat estetik zavq, balki hudud imijini shakllantirish va turistlar ongida ijobiy taassurot qoldirishdagi rolini ochib beradi. Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlarda bu yo'nalish hali to'liq shakllanmagan bo'lib, (Valek & Mura, 2022) tomonidan olib borilgan sistematik sharhda, san'at turistlarining motivatsiyasi, ehtiyojlari va xulq-atvori

bo'yicha empirik tadqiqotlarning yetishmasligi qayd etiladi. Ular art turizmi bo'yicha ko'proq amaliy tadqiqotlar olib borishga chaqiradi.

San'at va turizm o'rtasidagi o'zaro ta'sir tarixi esa, insonning joylar bilan emotsional aloqasi, estetik tajribasi va eslab qolish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. (Rakić & Lester, 2013) bu o'zaro aloqani san'at asarlari orqali joyni tasvirlash, tajriba qilish va yodda saqlash orqali chuqur ochib beradi. Urban joylarda san'at resurslarining joylashtirilishi esa shahar muhitini nafaqat mahalliy aholi, balki turistlar uchun ham maftunkor qiladi. (Golubeva, 2025) Izhevsk shahrida art turizm manbalarining tiplari, ularni marshrut sifatida shakllantirish va bu orqali shahar brendini yaratish yo'llarini kontent-analiz asosida tahlil qiladi. San'at turizmi faqat estetik zavq emas, balki psixologik sog'lomlashtirish vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Ukrainadagi vaziyatni inobatga olib, (Filina, 2023) art turizmi orqali odamlarning emotsional barqarorligini tiklash, stressni kamaytirish va ruhiy salomatlikni mustahkamlash imkoniyatlarini o'rganadi. Bunga qo'shimcha ravishda, amaliy tadqiqotlar orasida Ayvalik shahridagi art-turistik yo'nalishlarni tashkil etish tajribasi alohida e'tiborga loyiq. (Uguz, 2022)ning izlanishida shahar ichidagi san'at maskanlari, art studiyalar va tadbirlar asosida shakllantirilgan turizm yo'nalishlari tahlil qilinib, turistik gidlar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

San'at turizmi bo'yicha O'zbekiston va Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar, bu yo'nalishning shakllanishi, rivojlanish sur'atlari hamda madaniy, urbanistik va ko'rgazmaviy kontekstlarda qanday namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Bu hududlardagi ilmiy adabiyotlar ko'proq **muzeylar faoliyati, zamonaviy san'at platformalari, shahar madaniy landshafti va tarixiy teatr san'ati** asosida art turizmga yondashadi. O'zbekistonda zamonaviy san'atning rivojlanishi, xalqaro biennalelardagi ishtiroklar, kuratorlik loyihalari va postmodernizm ta'siri san'at turizmiga asos solmoqda. (Akhmedov, 2021)ning tadqiqotida zamonaviy san'at muhitining jadal rivojlanishi, mahalliy san'atkorlarning xalqaro maydonga chiqishi va art platformalarning ko'payishi art turizm uchun yangi zamin yaratgani ta'kidlanadi. Rossiya va O'zbekiston muzeylarida olib borilayotgan san'at tarixiy talqinlari ham art turizmga muhim rol o'ynaydi. Muzeylar orqali milliy va global merosning ifodalanishi, ularning interaktiv va raqamli shakllarda taqdim etilishi zamonaviy art turizm tajribasini boyitadi. 2024-yildagi tadqiqotga ko'ra, ushbu muzeylar san'atni nafaqat eksponat sifatida, balki ijtimoiy va estetik muloqot vositasi sifatida talqin qilmoqda (Burkhonova, 2024). Rossiyaning Izhevsk shahri misolida urban makondagi san'at resurslari tiplashtirilib, ularni art-turistik yo'nalish sifatida shakllantirish tajribasi taqdim etilgan. Bu Rossiyada art turizmni mahalliy ijodiy makonlar asosida rejalashtirish, turistlar bilan hissiy aloqa o'rnatish strategiyalarini ilgari suradi (Golubeva, 2025). O'zbekistondagi transport yo'llari, xususan Toshkent–Samarqand temiryo'l yo'nalishi bo'ylab hududlarning vizual va dizaynerlik yechimlar bilan boyitilishi esa art turizmni sayohat davomida estetik tajribaga aylantirishga xizmat qilmoqda. (Sindarovich, 2021)ning ushbu tadqiqoti yuqoridagi marshrut atrofida joylashgan hududlarning san'at va landshaft dizayni orqali transformatsiyasini ochib beradi. Art turizmning yana bir asosiy yo'nalishi muzey turizmi hisoblanadi. Farg'ona viloyatida (Gazieva, 2020)ning olib borgan tadqiqotida, mahalliy muzeylarning madaniy va san'at ob'ektlariga asoslangan holda turistlarni jalb qilishi, bu hududlarda art turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Tarixiy kontekstda esa teatr san'ati O'zbekistonda art turizmning ijtimoiy-ma'naviy omili sifatida ko'riladi. (Mamajonov, 2021)ning tadqiqotida Sovet davridagi teatrlar faoliyatining siyosiy g'oyalarga bo'ysungan holda rivojlangani tasvirlanadi. Bu san'at shaklining hozirgi davrdagi erkin shakllanishi esa turistik tajribalarni boyitadi.

Yuqorida tahlil qilingan xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, art turizm hali ilmiy hamjamiyatda mustaqil konsept sifatida to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, u madaniy va kreativ turizm nazariyalaridan oziqlanayotgan, estetik tajriba va faol ishtirok asosida rivojlanayotgan murakkab va ko'p qirrali hodisadir. San'at bilan bog'liq turistik tajribalar — bu faqat iste'mol emas, balki shaxsiy anglash, madaniy muloqot, ijtimoiy o'zaro

ta'sir va emotsional ong shakllanishi jarayoni hamdir. Ayniqsa, zamonaviy shaharlar kontekstida art turizm shahar brendi, iqtisodiy faollik va madaniy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur adabiyotlar kontent-analizi shuni ko'rsatdiki, art turizmga oid qarashlar kengayib bormoqda, biroq hali ham ushbu sohaning turli tarkibiy elementlari (masalan, turistlarning motivatsiyasi, ishtirok shakllari, san'at obyektlarining iqtisodiy va madaniy funksiyalari) bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa mazkur mavzuni yanada chuqurroq o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning metodologik asoslarini belgilashda **kontent-analiz** yondashuvi tanlandi. Ushbu metod san'at turizmi bilan bog'liq matnlar, ilmiy maqolalar, hisobotlar va empirik holatlarni tizimli va mantiqiy tahlil qilish, ularning mazmunini chuqur anglash imkonini beradi. Quyida bu tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodologik yondashuvlar, tanlov mezonlari va tahlil bosqichlari bayon etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda art turizm konsepsiyasining nazariy asoslarini ochib berish va uni mustaqil tadqiqot sohasi sifatida ko'rib chiqish imkoniyatlarini o'rganish maqsad qilingan. Shu sababli, mazkur ishda sifatli tadqiqot metodlariga tayanilgan holda, kontent-analiz yondashuvi tanlandi. Kontent-analiz — bu mavjud ilmiy adabiyotlar, rasmiy hisobotlar va amaliy tajribalar asosida muayyan tushuncha va g'oyalarni chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi metoddir. Ayniqsa, ilmiy doirada hali to'liq shakllanmagan tushunchalarni — xususan, art turizm kabi konseptual jihatdan ochilmagan mavzularni izchil tushunishda bu uslub samarali vosita hisoblanadi.

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro va mahalliy manbalar keng jalb qilindi. Bunga ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning (UNWTO, UNESCO) hisobotlari, O'zbekiston va Rossiyadagi art turizmga oid amaliy izlanishlar, shuningdek turizm, san'at va madaniyatga doir zamonaviy yondashuvlarni qamrab olgan ilmiy ishlanmalar kiradi. Ushbu manbalar 2010–2025 yillar oralig'ida chop etilgan bo'lib, zamonaviy yondashuvlar va kontseptual tahlillarni o'z ichiga olgan. Manbalarni tanlashda ularning mavzuga bevosita aloqadorligi, ilmiy maqomga ega bo'lishi, hamda amaliy yoki nazariy qiymatga egaligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Shuningdek, O'zbekistondagi san'at va turizm sohalariga oid empirik ishlanmalar, mahalliy muhitda olib borilgan tajribalar va loyihalarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi doirasida art turizm tushunchasini nazariy va amaliy jihatdan aniqlash hamda uni turizm nazariyalari doirasida mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllantirish maqsadida **integrativ konseptual model** ishlab chiqildi. Ushbu model kontent-analiz asosida ajratib olingan asosiy toifalar — nazariy asoslar, amaliy ifodalar, hududiy-urbanistik kontekstlar va psixologik-ijtimoiy funksiyalarni o'zaro bog'langan tizim sifatida birlashtiradi. Modelning ishlab chiqilishi art turizmni ko'p qirrali fenomen sifatida izohlash imkonini berib, keyingi bosqichlarda xizmat sifatini baholash metodikasini yaratish uchun nazariy va metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tahlil jarayonida kontent-analiz usuli yordamida manbalardagi asosiy kontseptlar, tushunchalar, nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar ajratib olindi hamda ularni muayyan toifalarga — nazariy, amaliy, ijtimoiy va iqtisodiy guruhlariga birlashtirish orqali qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Ayniqsa, madaniy va kreativ turizm, “staged authenticity”, “cultural capital” va “creative class” kabi nazariy yondashuvlar art turizmni ilmiy jihatdan tahlil qilishda asosiy g'oyaviy yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shuki, art turizmning mavjud nazariy ifodalanishi hozircha ko'proq madaniy va kreativ turizm doiralari ichida izohlanadi

(MacCannell, 1976; Richards, 1996, 2018). Biroq art turizm o'ziga xos **estetik tajriba, faol ishtirok, urban san'at makonlari, ijtimoiy-emotsional ta'sir va iqtisodiy transformatsiyakabi** jihatlari bilan alohida tahlilni talab etadi. Shu bois mazkur tadqiqotda art turizmni kompleks yondashuv asosida nazariy va metodologik jihatdan mustaqil konsept sifatida asoslashga urinish qilindi. Art turizm tushunchasini yanada chuqur tushunish uchun bu borada olimlarning bergan ta'riflarini ko'rib chiqishni maqsadfa muvofiq deb xisoblaymiz (1-jadval).

1-jadval

Art turizm xususiyatlari jadvali

Olim	Art turizmga ta'rif	Xususiyati
MacCannell (1976)	"Staged authenticity" konsepsiyasi — turistik tajribaning sahnalashtirilgan haqiqat orqali qabul qilinishi.	San'at tajribasi estetik va ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida.
Bourdieu (1984)	"Cultural capital" — san'at iste'moli orqali ijtimoiy tabaqalanish va did iqtisodiyoti namoyon bo'ladi.	Madaniy kapital va ijtimoiy maqom ifodasi sifatida.
Florida (2002)	"Creative class" — san'at va kreativ sohalar shahar rivojlanishi va innovatsion salohiyatini belgilaydi.	Kreativ iqtisodiyot va urbanistik rivojlanish bilan bog'liqlik.
Richards (2018)	Kreativ turizm — turist san'at jarayonida faol ishtirokchi sifatida qatnashadi.	Turistning faol sub'ekt sifatidagi roli.
Franklin (2018)	Art-galereyalar va rezidensiyalar — san'atni interaktiv tajriba sifatida shakllantiradi.	Rassom va mehmon o'rtasidagi interaktiv muloqot.
Plyuta (2021)	Art-instillatsiyalar va teatr shakllari — san'atni hamkorlikda yaratish tajribasi.	San'atni faqat tomosha qilish emas, balki yaratishda ishtirok etish.
Filina (2023)	Art turizm psixologik tiklanish va stressni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.	Psixologik-ijtimoiy funksiyalarni ta'minlaydi.
Rakić & Lester (2013)	San'at orqali joy va xotira o'rtasidagi emotsional bog'liqlikni ochib beradi.	Memorizatsiya va joy bog'liqligi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ayrim olimlar art turizm tushunchasini estetik tajriba va autentiklik nuqtai nazaridan yoritishga intilgan bo'lsalar, boshqalar uni madaniy kapital, kreativ iqtisodiyot yoki ijtimoiy-emotsional funksiyalar kontekstida izohlagan. Demak, mavjud adabiyotlarda art turizmga turli paradigmalardan yondashilganini ko'rish mumkin. Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib, **art turizm bu - bu san'at asosida tashkil etiladigan, estetik tajriba, interaktiv muloqot va faol ishtirokchilikka tayangan, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy qiymatlarni uyg'unlashtiruvchi turizm yo'nalishidir** deya ta'rif berish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Tahlil jarayonida keltirilgan ushbu ta'rif va adabiyotlar sharhi asosida art turizmning quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlandi:

1. San'at tajribasi markaziy o'rinda turadi. MacCannellning *"staged authenticity"* konsepsiyasi va Bourdieu (1984)ning *"cultural capital"* yondashuvi san'at tajribasini nafaqat estetik, balki ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida tushuntiradi.


2. Mehmon passiv tomoshabin emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Richards (2018) zamonaviy turizmga turist yaratuvchanlik jarayonining faol sub'ekti ekanini ta'kidlaydi. Shu bois art laboratoriyalar, festivallar va interaktiv ko'rgazmalar bu xususiyatni amalda ko'rsatib beradi.

3. Rassom va mehmon o'rtasida interaktiv muloqot yuzaga keladi. Franklin (2018) va Plyuta (2021) tadqiqotlariga ko'ra, art turizm san'atni faqat tomosha qilish emas, balki uni hamkorlikda yaratish va tajriba qilish jarayoniga asoslanadi.

4. Kreativ iqtisodiyot va madaniy menejment bilan uzviy bog'liq. Florida (2002)ning *"creative class"* nazariyasi art turizmni shahar brendi, urbanistik rivojlanish va innovatsion salohiyat bilan chambarchas bog'lab tushuntiradi.

5. Ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va estetik qiymat uyg'unlashadi. Filina (2023) art turizmning stressni kamaytirish va psixologik tiklanishda tutgan rolini ochib beradi, Rakić va Lester (2013) esa san'at orqali joy va xotira o'rtaqidagi emotsional bog'liqlikni tahlil qiladi. Demak, art turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va emotsional integratsiyani ham kuchaytiradi.

Shunday qilib, art turizmning asosiy xususiyatlari nafaqat estetik zavq va madaniy iste'mol bilan cheklanmay, balki faol ishtirokchilik, interaktiv muloqot, kreativ iqtisodiyot bilan integratsiya hamda ijtimoiy-emotsional funksiyalar majmuida namoyon bo'ladi. Bu esa art turizmni madaniy va kreativ turizmdan ajratib, uni alohida konseptual kategoriya sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Art turizmning integrativ konseptual modeli

Ushbu tadqiqot natijalarida ishlab chiqilgan **Art turizmning integrativ konseptual modeli** (qarang: 1-rasm) esa konseptual asoslarni, amaliy ifodalarni, hududiy-urbanistik kontekstlarni hamda psixologik-ijtimoiy funksiyalarni o'zaro integratsiyalangan tizim sifatida ko'rsatadi. Model markazida "Art turizm" tushunchasi turib, u turli nazariy va amaliy yondashuvlar orqali ilmiy va amaliy sohaga kengayib boradi. **Nazariy-huquqiy asoslar** blokida MacCannell (197)ning "sahnalashtirilgan haqiqiylik" konsepsiyasi, Bourdieu (1984)ning

“madaniy kapital” yondashuvi, Florida (2002)ning “yaratuvchi sinf” nazariyasi va Richards (2018)ning kreativ turizm konsepsiyasi integratsiya qilindi. Bu yondashuvlar san’at tajribasini nafaqat estetik, balki ijtimoiy va iqtisodiy identifikatsiya vositasi sifatida ham sharhlash imkonini beradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun art turizmni rivojlantirish uchun normativ-huquqiy baza yaratib, davlat qo‘llab-quvvatlashi, moliyaviy mexanizmlar va hududiy kreativ klasterlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Demak, art turizmning nazariy poydevori nafaqat xalqaro ilmiy konsepsiyalarga, balki milliy huquqiy asosga ham tayanadi. **Amaliy ifodalar** san’at turizmining konkret shakllarini – festivallar, ko‘rgazmalar, art-galereyalar va rezidensiyalarni qamrab oladi. Ular turistlarni faollashtirish, rassom bilan bevosita muloqot yaratish va tajribaviy ishtirokni kuchaytirish orqali nazariy asoslarni amaliy maydonga olib chiqadi. **Hududiy-urbanistik kontekstlar** art turizmning shahar va hududlar rivojiga ta’sirini ochib beradi. Bu jarayonda urbanistik rivojlanish, shahar imiji, infratuzilma integratsiyasi hamda muzey turizmi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Shahar makonida san’at loyihalari joyning jozibadorligini oshiradi va kreativ iqtisodiyot uchun resurs yaratadi. **Psixologik-ijtimoiy funksiyalar** esa art turizmning ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish, emotsional integratsiyani ta’minlash, xotira va joy bog‘liqligini shakllantirish, shuningdek, psixologik tiklanishga yordam berishdagi rolini ko‘rsatadi (Filina, 2023) & (Rakić & Lester, 2013). Ushbu jihatlar art turizmni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ruhiy salomatlik bilan ham bevosita bog‘laydi. Modelda ko‘rsatilgan oqimlar shuni anglatadiki, art turizmning nazariy konseptlari amaliy shakllarda namoyon bo‘ladi, ular hududiy-urbanistik rivojlanishga ta’sir qiladi va natijada jamiyat darajasida ijtimoiy-psixologik funksiyalarni bajaradi. Shu tarzda art turizm o‘zaro bog‘liq va ko‘p qirrali tizim sifatida qaraladi.

Kontent-analiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, art turizm tushunchasi hozircha ilmiy adabiyotlarda to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, mavjud konsepsiyalar va empirik dalillar uni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida asoslash imkonini bermoqda. Tahlil jarayonida aniqlangan asosiy jihatlar — nazariy asoslar, amaliy ifodalar, hududiy-urbanistik kontekstlar va psixologik-ijtimoiy funksiyalar — art turizmni ko‘p qirrali tizim sifatida talqin etishga asos bo‘ldi. Shunday qilib, **art turizm san’atning o‘zi emas, balki uning atrofida yaratiladigan tajribalar, muloqot va hissiyotlar majmuasi bilan ajralib turadi.**

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil oktyabrda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ-970-sonli qonuni art turizmni rivojlantirish uchun muhim normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonun san’at va madaniyatni iqtisodiy faoliyat sifatida e’tirof etib, art turizm tashabbuslarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy mexanizmlarni yaratish va hududiy kreativ klasterlarni rivojlantirishga imkon beradi. Mamalakatimizda olib borilgan kuzatuvlar art turizmning real amaliy ifodasini ko‘rsatmoqda. Nukusdagi **Savitskiy muzeyi** yiliga 100 mingdan ortiq xorijiy sayyohlarni jalb etib (ACDF, 2024), nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo san’at turizmida markaziy nuqtaga aylangan. Toshkentdagi **Human House** ijodiy maydoni va Nukusdagi **Art Station** rezidensiyasi zamonaviy rassomlar, mahalliy hamjamiyat va xalqaro turistlarni birlashtirib, san’atni tajriba va muloqot vositasiga aylantirmoqda (Umarova & Djanzakov, 2025). Bundan tashqari, **Samarqand va Toshkent biennalelari** mamlakatning kreativ imijini xalqaro miqyosda targ‘ib etib, art turizmning institutsional asoslarini shakllantirmoqda.

Mazkur jarayonlar xalqaro tajribadagi parallel tendensiyalar bilan hamohangdir. Masalan, Yevropadagi **Venetsiya biennalesi** yoki Osiyodagi **Sharja biennalesi** kabi yirik san’at forumlari milliy san’atni global maydonga olib chiqish, turistlarni jalb etish va hududiy brendingni mustahkamlashda xizmat qilsa (UNESCO, Culture | 2030, 2023), O‘zbekiston misolida bu jarayon milliy meros va zamonaviy ijodiy oqimlarning uyg‘unlashuvi orqali ifodalanmoqda.

Bundan tashqari, **UN Tourism** ma’lumotlariga ko‘ra, madaniy va kreativ industriyalar global YIMning qariyb 3,1 foizini yaratadi hamda bandlikning 6,2 foizini ta’minlaydi

(Travel&Tourism Development Index, 2024). Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonda art turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki milliy identitet va davlat imijini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston tajribasi art turizmni turizmni diversifikatsiya qilish, madaniy merosni zamonaviy shaklda talqin etish va milliy brendni xalqaro miqyosda targ'ib qilishning samarali vositasi sifatida talqin etish mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, art turizm tushunchasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, mavjud nazariy konsepsiyalar (MacCannellning "sahnalashtirilgan haqiqiylik"i, Bourdieu'ning "madaniy kapital"i, Florida'ning "yaratuvchan sinf" nazariyasi, Richardsning kreativ turizm yondashuvi va boshqalar) hamda empirik amaliyotlar asosida uni mustaqil turizm yo'nalishi sifatida shakllantirish zarur. Shuningdek, art turizmni rivojlantirish jarayonida milliy huquqiy baza, xususan, 2024-yilda qabul qilingan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni imkoniyatlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bu qonun art turizmning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy qiymatlarini uyg'unlashtirishda va xalqaro tajribalar bilan uyg'un rivojlanishda mustahkam tayanch vazifasini bajaradi.

Birinchidan, art turizmning asosiy xususiyatlari tizimlashtirildi: san'at tajribasining markaziy o'rinda turishi, turistning faol ishtirokchi sifatidagi roli, rassom va mehmon o'rtasidagi interaktiv muloqot, kreativ iqtisodiyot va madaniy menejment bilan uzviy bog'liqlik, shuningdek, ijtimoiy-madaniy, estetik va iqtisodiy qiymatlarning uyg'unlashuvi. Ushbu belgilar art turizmni boshqa turizm turlaridan ajratib turuvchi nazariy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston misolida art turizmning real amaliy ifodalari ko'rsatib berildi. Savitskiy muzeyi, Human House, Art Station rezidensiyasi va Samarqand biennalelari milliy miqyosda art turizmning shakllanishi va rivojlanishini ifodalaydi. Ushbu tashabbuslar xalqaro tajribalar (masalan, Venetsiya va Sharja biennalelari) bilan qiyosiy o'rganilganda, O'zbekiston sharoitida art turizmning milliy o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan konseptual model art turizmni faqat madaniy yoki kreativ turizm tarkibidagi yo'nalish sifatida emas, balki alohida ilmiy-amaliy tizim sifatida tushunishga imkon beradi. Mazkur model asosida xizmat sifatini baholash metodikasini takomillashtirish zarurati paydo bo'ladi. Bunda klassik SERVQUAL kabi yondashuvlardan tashqari estetik tajriba, interaktiv muloqot va ijtimoiy-emotsional integratsiya omillarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Taklif sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- art turizm tushunchasini mustaqil turizm yo'nalishi sifatida shakllantirish;
- O'zbekistondagi mavjud art turizm tashabbuslarini xalqaro tajribalar bilan qiyoslab, milliy xususiyatlarni aniqlash;
- art turizm modeliga asoslanib, xizmat sifatini baholash metodikasini yanada takomillashtirish;

• art turizmning nafaqat iqtisodiy foydasini, balki ijtimoiy birdamlik va psixologik tiklanishga qo'shayotgan hissasini ham turizm siyosati va strategik dasturlarda inobatga olish.

Yakunda shuni ta'kidlash lozimki, art turizm nazariy jihatdan asoslanishi orqali nafaqat madaniy menejment va turizm amaliyotida, balki xizmat sifati baholash metodologiyasida ham yangi ilmiy yo'nalishlar ochiladi.

Adabiyotlar/Ўмепамыпа/Reference:

ACDF. (2024). The State Museum of Arts named after I. V. Savitsky continues its large-scale exhibition project "Uzbekistan: Avant-Garde in the Desert.". Uzbekistan Art and Culture Development Foundation: <https://acdf.uz/news/the-state-museum-of-arts-named-after-i-v-savitsky-continues-its-large-scale-exhibition-project-uzbekistan-avant-garde-in-the-desert>.

Akhmedov, T. B. (2021). Curatorial Projects in Fine Arts of Uzbekistan. *International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis*. <https://doi.org/10.47191/ijmra/v4-i10-14>.

Biennial, B. (2025). About Bukhara Biennial — biennale platformasi va tarixiy-san'at muhiti haqida. Bukhara Biennial: <https://www.bukharabiennial.uz>.

Bourdieu, P. (1984). *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste*. Cambridge: Harvard University Press.

Burkxonova, M. (2024). Trends in art-historical discourses in museums of Russia, Uzbekistan, and the United Kingdom. *American Journal of Social Science and Humanity Research*, 85-88. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/volume05issue03-23>.

Filina, T. (2023). Psychological Recreation as Part of Art Tourism. *National Academy of Managerial Staff of Culture and Arts Herald*.

Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class*. New York: Basic Books.

Franklin, A. (-4. (2018). Art tourism: A new field for tourist studies. *Tourist Studies*, 18, 399-416. <https://doi.org/10.1177/1468797618815025>.

Gazieva, S. (2020). Museum tourism of Fergana region. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9, 98-104. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2020.00092.0>.

Golubeva, O. (2025). Typology of art-tourism cultural resources based on the example of Izhevsk, Udmurt Republic. *Architecton: Proceedings of Higher Education*. [https://doi.org/10.47055/19904126_2025_1\(89\)_24](https://doi.org/10.47055/19904126_2025_1(89)_24).

Jhala, K. (2024). Uzbekistan to get first major biennial in ancient city of Bukhara — ACDF roli, xalqaro va mahalliy ishtirokchilar, joylarni tanlash. *The Art Newspaper*: <https://www.theartnewspaper.com/2024/09/03/uzbekistan-to-get-first-international-biennial-in-ancient-ci>.

MacCannell, D. (1976). *The tourist: A new theory of the leisure class*. Schocken Books.

Mamajonov, D. (2021). Theatrical art of Uzbekistan during the Soviet period. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11, 252-256.

Neuendorf, H. (6.0.). How Did a Billion-Dollar Trove of Russian Avant-Garde Art End Up in Uzbekistan? *Получено из ArtNet*: <https://news.artnet.com/art-world/nukus-museum-savitsky-russian-art-302950>.

Plyuta, O. (2021). The role of art tourism in the process of forming tourist attractiveness of the territory. *National Academy of Managerial Staff of Culture and Arts Herald*, 3. <https://doi.org/10.32461/2226-3209.3.2021.244401>.

Qonun (2024) O'zbekiston Respublikasining O'RQ-970-sonli "Kreativ iqtisodiyot" to'g'risidagi" qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-7129258>.

Rakić, T., & Lester, J.-A. (2013). Relationships between travel, tourism and art: an introduction. *Travel, tourism and art*, 1-10.

Richards, G. (1996). *Cultural Tourism in Europe*. Wallingford: CABI.

Richards, G. (2018). *Cultural tourism: a review of recent research and trends*.

Richards, G. (2018). *Cultural tourism: A review of recent research and trends*. *Tourism Management*, 64, 237-245.

Sindarovich, U. A.-4. (2021). Architectural-Landscape and Artistic-Technical Modernization and Visualization of the Territories of the Tashkent-Samarkand Railway. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education*, 12, 4964-4969. <https://doi.org/10.17762/turcomat.v12i10.5261>.

Stead, C. (2025). Uzbekistan's Answer to Biennial Fatigue. Frieze: https://www.frieze.com/article/uzbekistans-answer-biennial-fatigue?utm_source.

Travel&Tourism Development Index. (2024). Получено из World Economic Forum.

Uğuz, S. Ç. (2022). Ayvalik an as Art Route for Tourism Guides Within the Frame of Art Tourism. In: Cases on Tour Guide Practices for Alternative Tourism. B Cases on Tour Guide Practices for Alternative Tourism (cmp. 240-256). <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-3725-1.ch013>.

Umarova, N., & Djanzakov, T. (2025). Savitskiy Museum in Nukus attracts over 100,000 tourists each year. Kursiv Lifestyle: <https://uz.kursiv.media/en/2025-09-15/savitsky-museum-in-nukus-attracts-over-100000-tourists-each-year>.

UNESCO. (2022). Culture and Creative Industries: Facts & Figures. Paris, France.

UNESCO. (2023). Culture | 2030. Получено из UNESCO. World Heritage Convention: <https://whc.unesco.org/en/culture2030indicators>.

UNESCO. (б.д.). The cultural sector represents 3.1% of global GDP and 6.2% of jobs. <https://www.unesco.org/en/culture>.

UNWTO. (2018). Tourism & Culture Synergies. <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284418978>.

UzDaily. (2025). Museums in Uzbekistan welcomed 4.8 million visitors in 2024; 1.4 million — foreign tourists. <https://www.uzdaily.uz/en/museums-in-uzbekistan-welcomed-48-million-visitors-in-2024>.

Valek, N. S., & Mura, P. (2022). Art and tourism – a systematic review of the literature. Tourism Review. <https://doi.org/10.1108/tr-05-2022-0214>.

Самойлова, С. (2025). Nearly five million people visited the museums of Uzbekistan. Nova24 uz: <https://nova24.uz/en/uzbekistan-en/nearly-five-million-people-visited-the-museums-of-uzbekistan>.